

Sog'liq ham, boylik ham Allohning sinovi



11:03 / 03.01.2019 7772

Ey, farzand!

Zuhd va taqvo sohibi bo'lmoq kerak.

Yahyo ibn Muoz deydilarki:

«Zuhdning ma'nosi – dunyo (ziynati)ni tark etmoqdir».

Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deydilar:

«Dunyo sevgisi barcha xatolarning boshidir. Dunyoni zohidlardan boshqasi tark etolmaydi!». Yana Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Sevimli sahobalarim! Qiyomatgacha kelguvchi ummatlarim! Siz juda ko'p sevadigan uch narsa borki, hech biri sizniki emas! Bular:

1. Jon (ruh)ni juda sevasiz, lekin jon – Alloh taoloning bir amridir.
2. Molni (mol-dunyoni) ko'p sevasiz. Lekin mol – merosxo'rlarnikidir.
3. Dunyoni ko'p sevasiz. Holbuki, qisqa bir umr surib, dunyoni tashlab ketasiz!»

Ey, farzand!

Sog'liq ham, boylik ham Allohning sinovi. Zotan, dunyo – imtihon, sinov maydoni.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Abu Hurayra roziyallohu anhuga shunday dedilar:

«Ey, Abu Hurayra! Alloh taolodan boshqasiga umid bog'lama. Unga tavakkul qil, Unga ishon, Unga suyan. Ne muroding bo'lsa Undan ista, Undan so'ra. Senga keladigan bir zararni yeru ko'k ahli bir joyga to'planib, o'nglamoqqa kirishsalar ham o'nglay olmas. Uning amri va iznisiz hech kim senga zarar va yomonlik qila olmas».

Allohning iznisiz hech kim moddiy, ma'naviy homiylik qilolmaydi. Ya'ni Alloh iroda etmaguncha, hech kim moddiy va ma'naviy jihatdan himoyasiga ololmaydi, hatto Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning shifoati ham Allohning izniga tobe'dir.

Badandagi har vujud parchasining bir odobi bor.

Ko'zning odobi – haromga qaramaslik.

Tilning odobi – haromni gapirmaslik.

Yolg'on, g'iybat behuda, bekorchi, befoyda, zararli so'zlar haromga kiradi. Bu haqda ham Payg'ambarimizning sollallohu alayhi vasallam ulug' so'zlari bor:

«Foydasiz so'zlarni so'zlamagan kishining iymoni nurli bo'ladi».

Quloqning odobi – haromni tinglamaslik. Eshitilganlardan yaxshi-yomonini ajratish, yaxshi bo'lganini qabul qilib tinglash, yomonini tinglamaslikdir. Beixtiyor, tasodifan eshitgan so'zlarga amal qilmaslik lozim.

Oyoqning odobi – haromga yurmaslik. Harom bo'lgan joylarga bormaslikdir.

Me'daning odobi – harom yemaslik.

Kim shu a'zolarini haromlardan saqlasa, Alloh taolo o'sha qulining barcha gunohlarini afv etadi. Aksincha harakat qilmagan kimsa o'z falokati va halokatini o'z qo'li bilan hozirlagan bo'ladi.

Ey, farzand!

Bu nasihatlarni tutsang, Alloh huzurida, payg'ambarlar oldida, oxir zamon payg'ambari Hazrati Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning yonlarida, avliyolar va barcha insonlar orasida yuzing yorug', oq, porloq va darajang yuksak bo'ladi, Inshaalloh!